



**MAKTAB O'QUVCHILARI HUQUQIY TA'LIM VA TARBIYASINI
SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.**

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini huquqi ta'lismi va tarbiya masalalari, olimlar tomonidan berilgan fikrlar va bugungi kundagi holati haqida so'z boradi. Undan tashqari, ushbu mavzu doirasida qilingan tadqiqot ishi va uning natijalari ham aks etgan.*

Kalit so'zlar: *huquqiy ta'lismi, huquqiy tarbiya, maktab, islohot, barkamol avlod, erkinlik, demokratiya, usul, metod, tehnologiya.*

So'ngi yillarda ta'lismi sohasida qilinayotgan islohotlar yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishi uchun hizmat qilmoqda. Ayniqsa Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashash g'oyasi bilan sug'orilayotgan shunday paytda yoshlarimizga erkinlik demokratiya, inson huquqlari kabi tushunchalarini o'rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifani maktab dargohlarida beriladigan huquqiy ta'lismi va tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin. Aslida, fuqarolarni ayniqsa yoshlarni huquqiy ta'limi va tarbiyasini yukaltirish masalasi kecha yoki bugun paydo bo'lgan jarayon emas. Qadimgi davrlardan boshlab to bugungi kungacha o'z huquq va burchlarini biluvchi faol fuqaroni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri bo'lgan.

Qadimgi davrning eng mashxur faylasuflaridan biri Suqrot o'ziningadolat va qonunnga bo'lgan munosabatini bildirib "Nimaiki qonuniy bo'lsa, u adolatlidir"- deya qonun jamiyatda adolat o'rnatishning eng asosiy vosita ekanligini ta'kidlagan. Undan tashqari Suqrotning "Adolat va har qanday ezzulik bilimdir" – deya bilimga va bilim olishga bo'lgan ehtiyoj kuchli bo'lish kerakligi adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda insonlar tomonidan huquqiy bilimlarga ega bo'lish zarurligiga urg'u bergen.

Platon huquqiy bilimlarni egallah va qonunni o'rganishni yuksak vazifa deb baholab "Chunki barcha barcha fanlar ichida, - deb yozadi Platon, - qonunlar to'g'risidagi fan insonni barchasidan ko'proq kamolga yetkazadi" [1]. Faylasufning mazkur qarashlari bizga insonlarning kamolotga erishishida huquqiy bilimlarni egallashi muhim jarayon deya xulosa qilishimizga imkon beradi.

Tadqiqotchilardan T.N.Lovnichaya esa huquqiy ta'lismi tushunchasiga boshqacha yondashuv bilan "Huquqiy ta'lismi jahon va milliy huquqiy madaniyat qadriyatlarini ifodalovchi huquqiy g'oyalari, normalari, tamoyillarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida belgilanishi mumkin" [2], – deya huquqiy madaniyatning shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Bu ta'rifda biz huquqiy ta'limga

mazmun mohiyatini o'rganishdagi funksional vazifalaridan biri sifatida e'tirof etganligini guvohi bo'lamiz.

Yuqoridagi fikrlardan farqli ravishda L.S.Glebova huquqiy tarbiyaga nisbatan butunlay o'zgacha yondoshib "Huquqiy tarbiya – davlat organlari va jamoatchilikning qonunga bo'y sunish va qonun ustuvorligiga rioya qilish bo'yicha barqaror yo'nalishlarini shakllantirish maqsadida odamlarning huquqi, huquqiy madaniyati va xulq atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi maqsadli faoliyatdir" [3], - deya ta'rif beradi. Olim huquqiy tarbiyani shakllantirish qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan davlat organlari va jamoatchilikning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Hozirda huquqshunoslik darslari 8-sinfdan boshlab o'tiladi. 8-sinfda "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" fani o'tilib bu fan yordamida huquq, qonun huquqbazarlik va boshqa huquqshunoslikka oid tushunchalarning ma'nolari va voyaga yetmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari bilan tanishib chiqishadi. 9-sinfda esa "Konstitututsiyaviy huquq" deb nomlangan fan o'tiladi va unda maktab o'quvchilari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tanishib chiqishadi. 10-11-sinflarda esa "Davlat va huquq asoslari" fani o'tilib unda huquqning ayrim sohalari: ma'muriy huquq, jinoyat huquq, mehnat huquqi, oila huquqi, xalqaro huquq va boshqa sohalari bilan bevosita tanishishlari mumkin.

Biz maktab o'quvchilariga huquqiy ta'lim va tarbiya berishning o'ziga xos jihatlarini inobatga olib, mavjud tehnologiyalarni takomillashtirishga qaror qildik. Darslik bilan ishslash texnologiyasini takomillashtirib "Darslik – tezkorlik" deb qayta nomladik va qaytadan kashf etdik. Undan tashqari "VAK – teching" deb nomlangan xorij tajribasini ham ta'lim tizimizga moslashtirib amaliyotda sinab ko'rdik. Shu va boshqa tehnologiyalarimizni sinab ko'rish uchun Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida joylashgan umumiy o'rta maktablarda taxsiloluvchi 8-sinf o'quvchilari bilan darslar tashkil etdik. Ushbu tajriba sinovlarimizda jami 489 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ularni sharli ravishda tajriba va nazorat guruhlariga bo'lib oldik. Tajriba guruhlarida o'zimiz takomillashtirgan zamonaviy tehnologiyalar asosida dars tashkil etdik, nazorat guruhlarida esa darslari doimiy holatda davom etdi. Natijalar taxlil qilingandan so'ng, tajriba guruhining ko'rsatgichlari nazorat guruhinikidan ancha yuqori chiqdi va bizning takomillashtirgan tehnologiyalar ishonchli ekanligini isbotladi. Umumiyl o'sish surati quyidagi diagrammada o'z aksini topgan:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Нерсасян В.С. Хуқуқ фалсафаси. Т.: Адолат. 2003, –Б.185
2. Ловничая Т.Н. Формирование правовой культуры учащихся в инновационной образовательной системе лицея: дис... канд. пед наук. Волгоград, 2003. 256 с.

3. Глебова Л.С. Педагогический энциклопедический словарь. М.: Большая энциклопедия, 2003. 172 с. Umumiyl 528 bet

4. Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li. Maktab o'quvchilari huquqiy ta'llim – tarbiyasini shakllantirish borasida olib borilgan tajriba sinov ishlari natijalarining pedagogik tahlili. SCIENCEPROBLEMS.UZ ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ. № S/2 (3)-2023. –В. 336-342

5. Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li. Organization of experimental work and analysis of results on the improvement of technologies for improving the effectiveness of legal education and training of schoolchildren. FRONTLINE SOCIAL SCIENCES AND HISTORY JOURNAL (ISSN – 2752-7018) VOLUME 03 ISSUE 04-2023 Pages: 54-61

11. Qayumova, Y., & Urmonova, D. (2023). EXCLAVAS OF UZBEKISTAN - COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ICHTIOFAUNALS OF SHAHIMARDAN AND SOKH. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(4). Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/30>

12. Qayumova , Y., & Komilova , X. (2023). ON THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MORPHOMETRIC CHARACTERISTICS OF THE TURKISH SAND FISH GOBIO LEPIDOLAEMUS (K.KESSLER1872). Scientific Journal of the Fergana State University, (3), 156. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/2622>

13. Каюмова, Ёркиной Кабиловна, et al. "ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ВАЛЕОЛОГИИ." Вестник науки и образования 9-2 (112) (2021): 16-20.

14. Каюмова, Ёркиной Кобиловна, and Дилдора Икромжоновна Комилова. "Биология гусеницы гранатовой плодожорки (*Euzophera Bigella Zeller*)."
Проблемы современной науки и образования 10 (143) (2019): 12-14.

15. Каюмова, Ё. К., Д. Э. Урмонова, and А. М. Мирзалиев. "БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГРАНАТОВОЙ ПЛОДОЖОРКИ (*EUZOPHERA BIGELLA ZELLER*, 1848) В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ." The Way of Science (2014): 8.